

6-10-2019

USAGE OF FAIRYTALES IN CREATIVE ATTITUDE IN THE READING CLASSES IN PRIMARY SCHOOL

Yulduzxon Sharimova

Teacher of "Methodology of primary education" faculty of pedagogy of NamSU

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

Recommended Citation

Sharimova, Yulduzxon (2019) "USAGE OF FAIRYTALES IN CREATIVE ATTITUDE IN THE READING CLASSES IN PRIMARY SCHOOL," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 2 , Article 201.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss2/201>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

USAGE OF FAIRYTALES IN CREATIVE ATTITUDE IN THE READING CLASSES IN PRIMARY SCHOOL

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDAGI ERTAKLARNI O'TISHGA IJODKORLIK BILAN YONDOSHISH

p.f.n. Shaamirova Yulduzxon Kabildjanovna NamDU pedagogika fakulteti
"Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim va tarbiya berishda ertaklardan foydalanishning ahamiyati haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: ertak, ta'lim, tarbiya, odoblilik, axloqlilik, do'stlik, mehnatsevarlik.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СКАЗОК В ТВОРЧЕСКОМ ОТНОШЕНИИ НА УРОКАХ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ.

к.п.н. Юлдузхон Шаамирова Кабиляджановна - старший преподаватель кафедры
"Методика начального образования" факультета педагогики НамГУ

Аннотация: Статья о использовании сказок в творческом отношении на уроках чтения с целью воспитать и обучать учеников начальных классов.

Ключевые слова: сказка, образование, воспитание, дружба, этика, воспитанность, трудолюбие.

USAGE OF FAIRYTALES IN CREATIVE ATTITUDE IN THE READING CLASSES IN PRIMARY SCHOOL

Ph.D. Yulduzkhon Shaamirova-senior teacher of "Methodology of primary education"
faculty of pedagogy of NamSU.

Abstract: article is about usage of fairytales with creative relationship in the reading classes, with the aim of brining up and educating pupils of primary classes.

Key words: fairytale, education, upbringing, ethics, courteousness, morals, friendship, industrious, hardworkness.

Yurtimizda ta'lim sifatiga erishish uchun davlat va xalqaro xarakterga ega hujjatlardan biri bo'lgan davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi. O'qituvchining mohirligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llay olishi va bu sohada tinimsiz izlanishi samaradorlikni ta'minlaydi va DTS talablarini a'lo darajada bajarilishiga imkon yaratadi. Izlanishlar, yangiliklar bilan ishlash o'quvchilarni mustaqil, ijodiy va erkin fikrlovchi, intellektual qobiliyatini yuksaltira olgan, har tomonlama yetuk bo'lib tarbiya topishiga imkon yaratadi [1]. Respublikamizda boshlang'ich ta'limga e'tibor borgan sari kuchayib bormoqda. Boshlang'ich sinflarni besh kunlik ta'lim tizimiga o'tkazilishi, o'qituvchilarga e'tiborning kuchayib borayotgani yanada ahamiyatlidir [2]. O'qituvchidan esa bunga javoban yanada samarali mehnat qilish, yanada ko'proq izlanish imkonini beradi.

O'qituvchi mahorati o'quvchilarning fanga qiziqishi va mavzularni puxta o'zlashtirishi bilan belgilanadi. Boshlang'ich sinflarni besh kunlik ta'limga o'tkazilishi ularni dars soatlarini bir-ikki soatga ko'payishiga to'g'ri keladi. Buni hisobga olgan holda turli usullarni izlab topadi. O'quvchilarni ta'lim bilan uzviy ravishda tarbiyasiga ham alohida ahamiyat qaratiladi.

Qadim va navqiron o'zbek xalqi doimo ziyoga, ilm-hunar egallashga intilgan. Bugungi kunda farzandining yuksak qobiliyat egasi sifatida tanilib, uning yetuk va barkamol shaxs bo'lib yetishishini orzu qilmaydigan ota-onaning o'zi yo'q. O'sib kelayotgan yosh avlodning har jihatdan yetuk bo'lib shakllanishida xalqimizning ezgu an'alariga asoslangan ta'lim tarbiyaning ahamiyati cheksizdir. Kelajak vorislarini har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash, ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirish uchun ular tafakkurini necha asrlardan buyon avloddan avlodga meros bo'lib kelayotgan xalq og'zaki ijodi badiiy durdonalari bilan boyitish lozim. O'zbek folklorining barcha janrlari katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Xalq donishmandligida yoshlarni ilmi, hunarli qilib tarbiyalashga va kattalar tajribasini ularga singdirish masalasiga katta o'rin berilgan. Badiiy asarlar o'quvchilarni nutqini boyitadi, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltiradi [9].

Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, uslubi jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning o'quvchilarga ta'siri ham har xil bo'ladi. Tabiiyki, har bir janrga oid asar matni lingvistik jihatdan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, she'riy asarlar matni hikoya matnidan, ertak matni she'r matnidan, ilmiy-ommabop maqola matni masal janriga taalluqli asarlar matnidan tubdan farq qiladi. Bu donishmandlik manbai bo'lgan xalq og'zaki ijodida xalqimiz hayotining turli manzaralari, turmush tartibi, qadimgi urf-odatlar va marosimlarini o'zida aks ettirgan dostonlar, ertaklar, latifalar, tez aytishlar, topishmoqlar, maqollar yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda, oilada bola tarbiyasida juda muhim vosita bo'lib xizmat qilib kelgan. Ularning har biri o'z o'rnida mohirona qo'llanilganda bolaga beqiyos ta'sir ko'rsatib uning ongiga muhrlanadi. Shuning uchun ertak, hikoya, she'r, topishmoq va maqollar, afsona va rivoyatlar ketma-ketligi asosida tashkillansa o'quvchining darsga qiziqishi, mustaqil kitob o'qishga muhabbati yanada oshadi. Kichik yoshdagi o'quvchilar uchun ravon yozilgan, tez yodda qoladigan, yumor tuyg'usini tarbiyalovchi kitoblar tavsiya etiladi. Bu davr bolalari o'zlari o'qigan, tinglagan asarlari yordamida atrof-muhit bilan tanishadilar, ona yurtga muhabbatli bo'lishni, tabiatga va mehnatga mehr berishni o'rganadilar. Bolalarni yoshlikdan kitobni sevish, mustaqil mutolaaga o'rgatish muhimdir. Kitob ularni fikrlash qobiliyatini o'stiradi, qalblarida eng yaxshi orzu-istaklarni uyg'otadi. Bu xildagi hikoyalar, topishmoq, maqollar ham kichkintoylarni mustaqil fikrlashga, turmush taassurotlarini to'plab, ulardan xulosa chiqarishga o'rgatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari asta-sekin mustaqil o'qishni boshlaydilar. Jumladan, xalq og'zaki ijodining eng mashhur janrlaridan biri ertak. U boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini o'stirishda, savodxonlikni oshirishda, ijodiy fikrlashni shakllantirishda ertaklardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Xalq og'zaki ijodi

namunalaridan biri bo'lgan ertak bolalarning ta'lim va tarbiya-sida eng ko'p ahamiyat kasb etadi. Ertak bolalarni tez fikrlashga, kuzatuvchanlikka, mehnatsevarlikka, fikr-mulohaza yuritishga o'rgatadi, xotirasini mustahkamlaydi, nutq malakalarini o'stirishga yordam beradi. O'zbek xalqi tomonidan yaratilgan ertaklarning mazmuni g'oyat xilma-xildir. Ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkirligi, ma'nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertakning o'tkir, maroqli sujeti, voqea rivojidadagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgulik kuchining- yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi. Ertakdagi hikoya qilish shakli bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarlidir. Ertak tinglash, ertak qahramonlari bilan xayolan birga bo'lish barcha uchun, ayniqsa, bolalar uchun maroqli. Ko'p eshitgan, o'qigan bola qalbida ezgulik urug'lari nish uradi. Shunday maqsadga qaratilgan darslarni har-xil o'yinlarni o'tkazish orqali ham samarali amalga oshirish tavsiya etiladi.

1-o'yin: Masalan darsning mustahkamlash qismida o'quvchilarga "G'OR" o'yinini o'ynatish mumkin. Bunda mavzu asosida turli mazmundagi maqollar va topishmoqlar yozilgan tarqatmali kartochkalarni maxsus g'orga o'xshatib yasalgan maketga solib qo'yiladi. Maketning o'zgacha yasalgan eshigi bo'lib, o'quvchi uni ochib ixtiyoriy kartochkani tanlab chiqaradi va savolni yoki maqolni yoki topishmoqni o'qiydi. Javobni to'g'ri aytsa rag'bat kartochkani qo'lga kiritadi. Bu orqali "O'quvchi mavzuni mukammal o'zlashtirganmi yoki yo'qmi" degan savolga javob topadi. Agar o'quvchilar javob topishga qiynalsalar, bilamizki mavzu to'laqonli qabul qilinmagan. Masalan: maqolni davom ettirish kerak bo'ladi. Qaysi mavzudan so'ng berilganini topadi.

Mehnat qilsang,

Yoki: topishmoqni to'ldiradi va javobini topish kerak bo'ladi. Qaysi mavzudan so'ng berilganini topadi.

Qat-qat qatlama aqling bo'lsa,(?)

Shu kabilar.

2-o'yin: "Gapni to'g'irla" Savatchaga ixtiyoriy mavzu tarkibidagi gap so'zlar holatida aralash qilib tashlaymiz. Albatta bu so'zning mantiqiy ma'nosi o'tilgan mavzuga mos bo'lib, o'quvchi bu badiiy asarni diqqat bilan o'qigan bo'lsa, u holda bo'lib tashlangan gapni tezda butlaydi. Masalan: o'rik, ko'p, Erkachol, mo'l, yillar, qilibdi, mobaynida, meva = Erkacholning o'rigi ko'p yillar mobaynida mo'l meva qilibdi.

Krossvordlardan ham samarali foydalanish mumkin. 3-sinf “O’qish” darsligidagi Mirkarim Osimning Abu Ali ibn Sinoga bagishlangan “Yosh hakim” nomli hikoyasini o’tish jarayonida quyidagi testdan mavzuni mustahkamlashda foydalanilsa, o’quvchilarda sezgirlik va bilimdonlik shakllanadi:

					H								
					A								
					K								
					I								
					M								

KROSSVORD

Savollar:


1. Kimning otasi marhum Abdulla podsho saroyida xizmat qilar edi?
2. Ibn Sino qaysi qishloqda tavallud topgan?
3. Ibn Sino bemorni davolaganidan so'ng qayerda mutolaa qilishga ijozat berishdi?
4. Ibn Sino puldan nimani muhim deb bilar edi?
5. Abu ali Ibn Sino dori-darmonlarsiz ham insonni qanday tuyg'u orqali davolash mumkinligini aytgan?

Darslikni diqqat bilan o'qigan bola albatta savollarga adashmay javob topadi.

Kitob bilan do'st bo'lgan bola hech qachon yomon illatlar asiriga aylanmaydi. Shunday ekan, ota-onalar, tarbiyachilar bola maktabga chiqqunga qadar ham ularga kitob o'qib bersalar kitobga muhabbat yoshlikdan boshlanadi. Ertak bolalarda qahramonlarning xatti-harakatini muhokama qilib, baholash ko'nikmasini o'stirishi bilan birga yaxshilik-ning doimo g'alaba qozonishiga ishonch uyg'otadi. Ertaklar bolaning diqqatini o'ziga jalb qilishi, uning qiziqishini uyg'otishi, dunyoqarashini boyitishi, intellektini rivojlantirishi bilan birga bolaning o'ziga va kelajagiga bo'lgan ishonchining ortishiga, shuningdek, o'z-o'zini hamda istak va tuyg'ularini tushunishiga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda o'qish kitobi darsliklarida juda ko'p o'zbek xalq ertaklari berilgan. Ular bir-biridan g'oya-viy mazmuniga ko'ra farqlanadi. Do'stlik, egrilik va to'g'rilik, mehnatsevarlik, kamtarlik, mehmondo'stlik, yaxshilik, ahillik kabi. Shu bilan birgalikda ular sodda tilda yozilgan. Bu esa bolani qiynalmasdan, qiziqish bilan o'zlashtirishiga asos bo'ladi. Ertaklarda doimo yaxshilik yomonlikning ustidan g'alaba qiladi. Yaxshilar doimo murod-u maqsadlariga yetadilar. 1-sinfda "Sher va sichqon", "Rostgo'y bola", "Aqlli bog'bon", "Hakka va uning bolalari", "Aql va boylik". 2-sinfda esa "Tuya, fil va olmaxon", "Tansihatlik — tuman boylik", "Kenja o'g'il", "Eng yaxshi sovg'a", "Tulki va xo'roz", "Aqlli bola", "Somon, cho'g' va loviya", "Hakka bilan tulki", "Uch o'g'il", "Tabiatning ne'mati ko'p", 3-4-sinflarda esa "Botir mergan va chaqimchi", "Halollik", "Donishmand yigit", "Ahillik — ulug' baxt", "Chumchuqcha", "Eng ulug' fazilat", "Chaqimchiga mukofot", "Ilm afzal", "Ochko'z boy", "Davlat", "Hiylagarning jazosi", "Ziyrak bola", "Hunarsiz kishi o'limga yaqin", "Ziyrak uch yigit" kabi xalq ertaklari o'quvchilarda mehnatsevarlik, ilmga muhabbat, rostgo'ylik, mardlik, o'zaro mehr-muhabbat, halollik, ziyraklik, hunar o'rganishga


ishtiyoq, kattalarga hurmat va ularga doimo quloq solish, kamtarlik, do'stlik, tabiatga muhabbat kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.[5,6,7,8]

KROSSVORD



1. Uch o'g'il qaysi janrda yozilgan. (she'r)
2. Ayrilganni ayiq(rivoyat)
3. Eng yaqin do'stimiz.....(kitob)
4. Bahor darakchisi qaysi qush (qaldirg'och)
5. Qaysi faslda barglar sarg'ayadi (kuz)


Mavzu yuzasidan krossvord tuzdirish va unga asosan rebus ishlatish darsning samarasini yanada oshiradi. Masalan: 2-sinf "O'qish" darsligidagi "Zumrad bahor baxri diling ochar" bo'limidagi "Polvonman" mavzusini o'tishda quyidagi krossvordni va unga mos rebusni ishlatilsa, mavzu yanada tushunarli bo'ladi:



SAVOLLAR

1. Toshkent O'zbekistonning
2. Erta bahor ochiladigan gulning nomi qaysi?
3. Bahor elchisi qaysi qush?
4. O'zbekiston- bizning
5. Sabzini xush ko'ruvchi hayvon qaysi?
6. Eng aziz ne'mat - bu
7. Bilim maskani- bu
8. Yangi yil bayramida bezatiladigan daraxt nomi nima?
9. Yurtimizda "Gullar shahri" deb nom olgan shahar nomi?

Rebuslardan ham samarali foydalanish mumkin:



Halollik” ertagida (3-sinf) asosiy fikr kambag’allarga yordam ko’rsatish, o’z mehnati bilan hayot kechirish, bu hatto butun xalq istagi ekanligi g’oyasi ilgari surilgan bo’lsa, “Hiylagarning jazosi” (4-sinf) soddadilning to’g’riligi hiylagarning makri ustidan g’olib kelishi, xiyonat jazosiz qolmasligi g’oyasi ilgari surilgan. Har ikki ertak ham to’g’riso’zlikning g’alabasi bilan yakunlanadi. “Ilm afzal” ertagidan esa, ilm olishning jamiki narsadan ustun turishini, o’qigan odam bilimdon, o’tkir fikrli, obro’li bo’lishlariga ishonch hosil qiladilar.[2] Bolalarda o’qishga muhabbat ortib, ota-onalarining, umuman, o’zidan kattalarning nasihatlariga amal qilish kerakligini tushunib yetadilar. Boshlang’ich sinflarda hayvonlar haqidagi ertaklar ko’proq o’qitiladi. “Bo’rining tabib bo’lgani haqida ertak” (Anvar Obidjon) “Ko’zacha bilan tulki”, “Chumchuqcha”, “Sher va sichqon”, “Hakka va uning bolalari”, “Tuya, fil va olmaxon”, Bunday ertaklardan tashqari “Davlat”, “Aqlli bola”, “Hiylagarning jazosi”, “Ziyrak bola”, “Hunarsiz kishi o’linga yaqin”, “Ziyrak uch yigit” kabi hayotiy-maishiy ertaklarni ham o’qiydilar. Bunday ertaklarda xalq hayoti haqida hikoya qilinadi. Shu sababli o’quvchilar ertakni o’qigach, o’tmishdagi xalq hayotini, o’y-fikrlari va orzu-istaklarini bilib oladilar.

“Davlat” ertagida (4-sinf) ahillik, ota-onaga hurmat, halol mehnat qilish kabi g’oyalar aks etgan. “Rostgo’y bola” (1-sinf) ertagida bola rostgo’ligi bilan podshoga ma’qul bo’lganligi hikoya qilingan. Ertak g’oyasiga mos xulosa esa “Boshingga qilich kelsa ham to’g’ri gapir” maqoli bilan ifodalangan. O’quvchilar ertakni tinglar yoki o’qir ekanlar, darhol ularda qayta hikoya qila olish malakasi ham tarbiyalanadi. Ertakdagi yaxshi fazilatlardan o’rnak oladilar. “Yaxshilik-yaxshi” ekanini tushunib yetadilar, chaqimchilik, yovuzlik, maqtanchoqlik, quloqsizlik kabi yomon odatlar insonni boshiga yomon kunlarni solishini tushunib yetadilar. O’zbek xalq ertaklarida ayollar obrazi (Zumrad, Oygul) mehnatsevarlik, saranjom-sarishtalilik, sabr-toqatlilik, kamtarinlik kabi sifatlar bilan, erkaklar obrazi (Rustam, Bunyod) esa mardlik, botirlik, vatanparvarlik, kuchsizlarni himoya qilish, o’zlariga yordam berish bilan tavsiflanadi. Ertakdagi bunday xulq ko’rinishlari bolada axloqiy sifatlarni shakllantirmasdan

qolmaydi, albatta. Ertaklar ta'sirida bola nima yaxshi-yu, nima yomonligini anglab boradi. Unda yomon qahramon-salbiy ishlarni, yaxshisi esa xayrli ishlarni bajaradi va buning natijasi o'laroq yomonga-jazo, yaxshiga-mukofot va yutuqning ta'minlanishi bilan yakun topadi.

Barcha ertaklarda mana shunday tamoyil va ketma-ketlikning takrorlanishi bola ongida yaxshilikka intilishning hamda yomonlikdan tiyilish paydo bo'lishida, uning axloqiy sifatlarida bu xususiyatlarning mustahkamlanishida o'ziga xos ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ertakning pedagogik qiymati shundan iboratki, o'quvchilar unda to'g'rilik, halollik g'alaba qilganidan, kambag'al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Shuni alohida qayd etish lozimki, ertakning har doim yaxshilik bilan tugashi va baxtli yakun topishi bolani o'ziga jalb qiladi. Ertaklar bolalarning nafaqat aqliy rivojlanishini ta'minlaydi, balki uning ma'naviy-axloqiy kamolotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. "Ertaklar-yaxshilikka yetaklar" degan gap bejiz aytilmagan. Yaxshilik qilganlarning ertak oxirida niyatiga yetishi bola ongida ezgulik qilish kerakligi haqida fikr uyg'otadi va uning qalbida yaxshilik urug'larini sochadi. Mutaxassislarining qayd etishicha, ertaklar bolaning ta'lim-tarbiyasi va xulq-atvorining shakllanishida ham muhim ahamiyatga ega. Ertaklar xalq orasida shakllangan ijobiy xulq-atvor modellari, qadriyatlar, e'tiqodlar va hayotiy ssenariylarni taklif etibgina qolmasdan, balki ularni bola ongiga singdirishga ham xizmat qiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, bolaga ertak aytib berish uning shaxs sifatida rivojlanishiga ijobiy ta'sir etishi bilan birga, ota-onalar uchun bola xulqini osongina to'g'irlovchi vosita hamdir. Bundan tashqari, bolaning kitob, ijodga mehri oshishiga ham yordam beradi. Bugun mamlakatimizda kitobxonlikka katta e'tibor qaratilayotgan bir paytda bolalarda bunday xususiyatning shakllantirilishi nafaqat uning o'zi uchun, balki jamiyat uchun ham katta ahamiyat kasb etishini har bir ota-ona tushunib yetsa kerak, albatta. Kitob o'qish bola ongi, tafakkuri, tasavvurini o'stirish bilan birga, uning nutqini ham ravon qiladi, ma'naviyatini boyitadi. O'z farzandida bunday ijobiy sifatlarni shakllantirishni qaysi ota-ona istamaydi.

Ertaklarni o'qish, ona tili, odobnoma, matematika, tabiatshunoslik, darslari davomida ham qo'llash mumkin. Bunda ertaklar va ularning qahramonlari bolaga tarbiya bilan birgalikda ta'lim ham beradi. Eng asosiysi shu dars bola uchun juda qiziqarli bo'ladi. Matematika darsiga Bilmasvoy va Qimmatning kirib kelishi, o'qish va odobnoma darslariga dono bobo va buvining kirib kelishi, tabiatshunoslik darsiga dehqon boboning kirib kelishi o'quvchilarda shu darsga yanada qiziqishni oshiradi, ularni yanada faolroq bo'lishga undaydi. Bilmasvoy va Qimmat yecha olmagan misol va masalalarni tezroq yechib ko'rsatishga undaydi.

Ertaklar o'quvchilarni mustaqil fikrlash, xulosa chiqarish, bir-birini fikrini to'ldirish ko'nikmalarini ham tarbiyalaydi. Mutaxassislarining fikriga ko'ra, ertaklar xalq madaniyati va ma'naviyatining eng barqaror holda uzatish shakli hisoblanadi.

Masalan, “Zumrad va Qimmat” ertagidagi Zumradning tabiat- qushlar, hayvonlar, o‘t-o‘lanlarga mehribon va mehnatsevarligi hamda bu sifatlar uchun uning sehrli tarzda mukofotlanishi, uni tinglayotgan bola qalbida yaxshilik, mehnatsevarlik va tabiatga nisbatan mehr uyg‘otadi. Ular do‘st bo‘lmoqchi bo‘lgan Qimmatga “Qimmat, agar sen tabiatni sevganingda men sen bilan o‘rtoq bo‘lardim”, “Qimmat, agar sen yalqov bo‘lmay, mehnatni sevganingda sen bilan o‘rtoq bo‘lar edim”, “Qimmat, agar sen gullarga va qushlarga ozor bermaganingda men sen bilan o‘rtoq bo‘lar edim”, “Qimmat, agar sen Zumradni hurmat qilsang u bilan do‘st bo‘lsang shunda men ham sen bilan o‘rtoq bo‘laman”- degan o‘zlarining xolis fikrlariga ega bo‘ladilar. Kichik yoshdagi bolalarda komil inson fazilatlarini tarkib toptirishda ertaklarning o‘z o‘rni bor. Xalq og‘zaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanish darslar samaradorligini ta‘minlash, o‘quvchilarga ta‘lim va tarbiya berida muhim o‘rin tutadi. Xalq donishmandligi namunasi bo‘lgan ertaklar, maqollar, tez aytishlar bolalarni burro-burro so‘zlashga, aytilmoqchi bo‘lgan fikrni to‘g‘ri ifodalashga o‘rgatadi. Xulosa qilib aytganda, davr yoshlarining yuksak ma‘naviyat egalari bo‘lib shakllanishida avloddan avlodga meros bo‘lib kelayotgan, chuqur ta‘limiy, tarbiyaviy qarashlarni o‘zida mujassam etgan xalq og‘zaki ijodining o‘rni beqiyosdir. Ular zamiridagi mohiyat kelgusi avlodni yanada aqliy, axloqiy, ruhiy yetuklikka chorlayveradi. Shunday ekan, hurmatli ota-onalar, o‘z farzandingizga ertaklar aytib berishdan erinmang. Turli xil “bahonalar” bilan ertak aytishdan bosh tortish bolani yuqoridagi imkoniyatlardan mahrum qilishga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois boshlang‘ich ta‘limda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan, xususan ertaklardan o‘rinli foydalanish o‘quvchilarga ta‘lim va tarbiya berishda doimo kerakli vosita bo‘lib qolaveradi.

References:

1. Abdurahim Nosirov filologiya fanlari doktori “Amaldagi va yangi DTS: farq va afzal jihatlar nimada?”. “Til va adabiyot” jurnali, 2017-yil. 5-son 4-bet.
2. Abdulla Musurmonov, Termiz Davlat Universiteti. “Sinfdan tashqari ishlarda ertaklardan foydalanish”, “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali 2005-yil yanvar-fevral soni. 7-beti.
3. Alimova G, Ismoilova N, Nizomiy nomidagi TD‘U “saxologiya” kafedrasida katta o‘qituvchilari “Bola shaxsi shakllanishida ertakning ta‘siri”, “Sog‘lom avlod uchun” 2018-yil 3-son 15-bet.
4. Ahmedova Nazira Res‘ublika ta‘lim markazi boshlang‘ich ta‘lim bo‘limi boshlig‘i “Uzviylik- ta‘lim samaradorligi kafolati” “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali 2017-yil. 6-son, 7-bet.
5. Dolimov Z, Matchonov S, Sariyev Sh, .Shojalilov A, 4-sinf “O‘qish kitobi” Yangiyo‘l ‘oligraf servis” nashryoti. 2017-yil. “ Ertaklar mamlakatida” bo‘limi 42-71-betlar.
6. Eshturdiyeva G, G‘afforova T, Shodmonov 1-sinf “O‘qish kitobi” “Sharq” nashryoti. Toshkent 2018-yil. “Xalq o‘giti-baxt kaliti” bo‘limi 58-62-betlar.

7. Hamroqulova X, Tojiboyeva R, Umarova M, 3-sinf “O’qish kitobi” “Sharq” nashryoti. 2016-yil. “Xalq og’zaki ijodi” bo’limi. 24-31-betlar.
8. Mirzahakimova Z, Nurullayeva Sh, G’afforova T 2-sinf “O’qish kitobi” “Sharq” nashryoti. Toshkent. 2016-yil. “Ertaklar-yaxshilikka yetaklar” bo’limi. 132-148-betlar.
9. Sh. Jabborova, Qarshi shahridagi 9-maktabning boshlang’ich sinf o’qituvchisi, “Xalq og’zaki ijodidan foydalanish” “Boshlang’ich ta’lim” jurnali 2011-yil. 2-son, 28-bet.